

## Kasbim kelajagim

Kasb - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: "Hayotda Siz uchun eng sevimli bo'lgan kasbni tanlab va Siz bir umr ishga bormaysiz". Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlayotgan bo'lsa u hech qachon har ertalab o'zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O'zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi. Siz hozirgi yoshingizda kelajakda shug'ullanishingiz uchun kasb tanlayotgan bo'lsangiz, faqatgina bu kasbdan Sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani ham hisobga oling.



Siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz Sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi! "Umumtexnik fanlar" kafedrasi assistenti B.Jo'rayeva 2021-yil 21-iyun kuni "Qarshi muhandislik iqtisodiyot akademik litseyi" ga tashrif etib, kasb tanlash va Oliy ta'lrimuassasalariga kirishlari uchun kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha suhbat tashkil etdi.



B.Jo'rayeva o'quvchi-yoshlarga TIQXMMI Qarshi filialini tashkil etilishi, hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan fakultet, kafedralar, mavjud yo'nalishlar, mutaxassislar, talabalar hayoti, talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv xonalaridagi sharoitlar, qulayliklar, kredit-modul tizimi, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etilishi, o'quv mashg'ulotlari, to'garaklarning tashkil etilish jarayonlari haqida bat afsil ma'lumotlar berdi.

**"Umumtexnik fanlar" kafedrasi assistenti B.Jo'rayeva axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**